



Functional and stylistic aspects of lexical units with the semantics "mouth/og'iz" in the compared languages

Botirbek OTAJONOV¹

Andijan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received November 2024

Received in revised form

10 December 2024

Accepted 25 December 2024

Available online

25 January 2024

Keywords:

functional-stylistic,
semantics,
language styles,
contrastive analysis,
contextual analysis,
metaphor,
denotative and connotative
meanings,
linguoculturological
approach,
lexical units,
literary and scientific styles,
culture,
comparative analysis,
stylistic differences,
translation methodology.

ABSTRACT

This article is dedicated to the functional-stylistic characteristics of lexical units with the semantics of "mouth/og'iz" in English and Uzbek. The study examines their usage in different styles, as well as their denotative and connotative meanings. Using contextual and contrastive analysis methods, distinctive features in scientific, literary, journalistic, and official-legal styles are identified. The results show that in each style, the lexical units for "mouth/og'iz" carry different semantic loads, and their usage is influenced by cultural and social factors. This article enriches theoretical knowledge in the fields of linguoculturology, semantics, and pragmatics, and helps reduce the risk of interference in language learning and translation processes. Stylistic analyses provide a more detailed understanding of the role of these units in different languages and styles.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1/S-pp133-139>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Chog'ishtirilayotgan tillarda "mouth/og'iz" semantikali leksik birliklarning funksional-stilistik jihatlar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

funksional-stilistik,
semantika,
til uslublari,
kontrastiv tahlil,
kontekstual tahlil,

Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillaridagi "mouth/og'iz" semantikali leksik birliklarning funksional-stilistik xususiyatlarini chog'ishtirishga bag'ishlangan. Tadqiqotda ushbu birliklarning turli uslublardagi qo'llanishi, denotativ va konnotativ ma'nolari o'rganilgan. Kontekstual va kontrastiv

¹ Teacher, Andijan State Institute of Foreign Languages.

metafora,
denotativ va konnotativ
ma'no,
lingvokulturologik
yondashuv,
leksik birliklar,
badiiy va ilmiy uslub,
madaniy,
qiyosiy tahlil,
uslubiy farqlar,
tarjima metodologiyasi.

tahlil metodlari yordamida ilmiy, badiiy, publitsistik va rasmiy-huquqiy uslublardagi o'ziga xos jihatlar aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, har bir uslubda "mouth/og'iz" birliklari turlicha ma'no yukiga ega bo'lib, ularning qo'llanilishi madaniy va ijtimoiy omillarga bog'liq. Ushbu maqola lingvokulturologiya, semantika va pragmatika sohalarida nazariy bilimlarni boyitib, til o'rganish va tarjima jarayonida interferensiya xavfini kamaytirishga ko'maklashadi. Stilistik tahlillar orqali mazkur birliklarning turli tillar va uslublardagi o'rni yanada batafsil yoritilgan.

Функционально-стилистические аспекты лексических единиц с семантикой «mouth/og'iz» в сопоставляемых языках

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

функционально-стилистический, семантика, языковые стили, контрастивный анализ, контекстуальный анализ, метафора, денотативное и коннотативное значение, лингвокультуры, лексические единицы, художественный и научный стиль, культура, сравнительный анализ, стилистические различия, методология перевода.

Настоящая статья посвящена функционально-стилистическим характеристикам лексических единиц с семантикой «mouth/og'iz» в английском и узбекском языках. В исследовании рассматривается их использование в различных стилях, а также денотативные и коннотативные значения. С помощью методов контекстуального и контрастивного анализа выявлены особенности научного, художественного, публицистического и официально-правового стилей. Результаты исследования показывают, что в каждом стиле лексические единицы «mouth/og'iz» несут различную семантическую нагрузку, и их использование зависит от культурных и социальных факторов. Статья способствует обогащению теоретических знаний в области лингвокультуры, семантики и прагматики, а также помогает уменьшить риск интерференции в процессе изучения языка и перевода. Стилиевые анализы более детально освещают роль этих единиц в различных языках и стилях.

KIRISH

Tilning funksional-stilistik jihatlarini tilning quyi tizimlari bo'lib, har bir quyi tizim leksik vositalar, sintaktik tuzilmalar va hatto fonetikaga tegishli bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tilda funksional-stilistik jihatlarining paydo bo'lishi va mavjudligi inson hayotining turli sohalarida muloqotning o'ziga xos shartlari bilan bog'liq. Funksional-stilistik jihatlar nafaqat ayrim elementlardan foydalanish mumkin yoki mumkin emasligi, balki ulardan qancha ko'p yoki oz foydalanish bilan ham farqlanadi.

Mazkur mavzu dolzarb hisoblanadi, chunki "mouth/og'iz" kabi asosiy semantikali leksik birliklar tilning turli qatlamlarida keng ko'lamda qo'llaniladi va turli funksional uslublarda turlicha ifodalanadi. Masalan, badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy-huquqiy va og'zaki muloqot uslublarida ushbu birliklarning ma'nolari va qo'llanilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning o'zaro chog'ishtirilishi tilshunoslikdagi muhim masalalardan biridir.

“Mouth/og‘iz” birliklarining funksional-stilistik tahlili orqali biz turli madaniyatlarda leksik birliklarning ma’no chegaralari, konnotativ va denotativ ma’nolari, shuningdek, ularning stilistik yukini aniqlashimiz mumkin. Ushbu masala zamonaviy tilshunoslikning lingvokulturologiya, semantika, pragmatika kabi yo’nalishlari uchun muhim ahamiyatga ega. Bu kabi tadqiqotlar nafaqat tilning ichki tizimini chuqurroq o’rganish, balki turli tillar va madaniyatlar o’rtasidagi aloqalarni yoritishda ham katta rol o’ynaydi.

Shuning uchun mazkur mavzuni o’rganish tilda funksional-stilistik jihatlarining nazariy asoslarini boyitish, qiyosiy tahlil metodologiyasini takomillashtirish va amaliyotda, xususan, tarjimada qo’llaniladigan usullarni aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

METODLAR

Leksik birliklarning funksional-stilistik jihatlarini o’rganish uchun bir nechta asosiy metodlardan foydalanildi. Birinchidan, kontrastiv tahlil metodi qo’llanilib, “mouth/og‘iz” semantikali birliklarning turli tillardagi ma’no va uslubiy jihatlari chog’ishtirildi. Bu usul yordamida leksik birliklarning denotativ va konnotativ ma’nolari, shuningdek, ularning turli kontekstlarda ishlatilishi tahlil qilindi. Ikkinchidan, kontekstual tahlil usuli orqali ushbu birliklarning turli uslublardagi qo’llanish xususiyatlari o’rganildi. Bunda ilmiy, badiiy, publitsistik va rasmiy matnlar korpusi tahlil qilinib, har bir uslubga xos leksik birliklar ajratib olindi va ularning stilistik yuklari belgilandi. Uchinchidan, statistik usuldan foydalanib, leksik birliklarning uslubiy xususiyatlarini aniqlash uchun turli uslublardagi matnlardagi foydalanish chastotasi o’rganildi. Ushbu tahlil natijalari asosida “mouth/og‘iz” birliklarining eng ko’p qo’llanilgan kontekstlari aniqlanib, ular orasidagi stilistik farqlar ajratib ko’rsatildi.

Nihoyat, lingvokulturologik yondashuv asosida “mouth/og‘iz” semantikali birliklarning ikki tilda aks etgan madaniy va ijtimoiy jihatlari o’rganildi. Bu yondashuv yordamida ushbu birliklarning ma’nosi va uslubi turli madaniy an’analar va ijtimoiy kontekstlarda qanday o’zgarishi aniqlashtirildi. Metodologiyaning har bir bosqichi mazkur mavzuni chuqur tahlil qilish va turli tillardagi leksik birliklarning funksional-stilistik jihatlarini batafsil yoritishga imkon berdi.

NATIJALAR

Til turli funksional-uslubiy qatlamlarga bo’linadi va har bir qatlam maqsadga yo’naltirilgan alohida leksik va grammatik vositalarga ega. Uslublar orasidagi farqlar, ularning muloqot sharoitlari va tilning funksional xususiyatlari orqali aniq namoyon bo’ladi. Masalan, ilmiy uslubda murakkab terminologiya va aniq grammatik konstruktsiyalar ishlatiladi, bu esa axborotni mantiqan to’liq va ravon yetkazishga yordam beradi. Rasmiy uslubda esa, asosan, huquqiy va ishbilarmonlik kontekstida ishlatiladigan atamalar va formulalar o’z ifodasini topadi. Badiiy uslub esa tasviriy vositalar va emotsional ta’sirga asoslanadi, bu esa yozuvchining ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tahlil qilingan leksik birliklar, xususan, *og‘iz* (*mouth*) so’zining ma’nolaridagi o’zgarishlar har bir uslubda o’ziga xos tarzda aks etadi. Ilmiy uslubda bu leksik birlik axborotni aniq va noaniqlikdan holi tarzda yetkazishda xizmat qilsa, badiiy uslubda u ko’proq obrazli va tasviriy tarzda ishlatiladi. O’zbek tilidagi *og‘iz* va ingliz tilidagi *mouth* semantikali birliklarning funksional-stilistik taqqoslanishi, ularning har bir uslubiy vazifada qanday qo’llanilishi, til o’rganish va tarjima jarayonida o’zaro interferensiya xavflarini kamaytirishga yordam beradi.

Funksional-stilistik jihatlar har bir uslubning til vositalari va ularning kontekstda qanday ishlashini ochib beradi. Ilmiy uslubda rasmiy, texnik va to'liq ifodalar, badiiy uslubda esa ko'proq tasviriy va noaniq, emotsional ifodalar ustunlik qiladi. Bu farqlar tilda moslashtirish, tarjima va tilni o'rganishda muhim o'rin tutadi, chunki har bir uslub o'zining maqsad va vazifalariga qarab til vositalarini tanlaydi.

MUHOKAMA

Ko'p so'zlar turli uslublarda turlicha ma'noda ishlatilishi mumkin. Masalan, rasmiy uslubda foydalaniladigan so'zlar ilmiy uslubda boshqa ma'noga ega bo'lishi yoki umumiy suhbat uslubida mutlaqo boshqacha talqin qilinishi mumkin. Shuningdek, ba'zi uslublar ichida sinonimiya, antonimiya va omonimiya jarayonlari orqali bir ma'noli so'zlar turli kontekstlarda har xil mazmun kasb etishi mumkin. Funksional-stilistik jihatlar til vositalarining aniq va har xil sharoitlarda qanday qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Masalan, rasmiy uslubda qat'iy tartib va me'yorlarga amal qilinadi, lekin badiiy uslubda yozuvchi o'zining ijodiy erkinligini to'liq namoyon etishi mumkin. Har bir funksional uslub o'ziga xos me'yorlarga ega. Rasmiy-huquqiy hujjatlarda standart iboralar va qoliplar muhim ahamiyat kasb etsa, badiiy uslubda ko'pincha tasviriylik va hissiy ifodalarga urg'u beriladi. Me'yorlarga amal qilish har bir uslubning kommunikativ muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Funksional-stilistik jihatlar tilning qanday qo'llanilishini, qanday uslubiy vositalardan foydalanilishini va ma'lum bir vazifani bajarish uchun qanday til birliklari tanlanishini belgilaydi. Bu jihatlar tilni inson faoliyatining turli sohalarida samarali muloqot qilish imkonini beradi.

Ilmiy uslub: *oral cavity* yoki *buccal cavity*, o'zbek tilida esa *og'iz bo'shlig'i* kabi rasmiy va tibbiy terminlar qo'llaniladi.

Ingliz tilida: *The oral cavity, or mouth, is the first step of the digestive system but can be used as a secondary source to bring air into the body. The oral cavity plays a crucial role in the digestive system.*

O'zbek tilida: *Og'iz bo'shlig'i* yoki *og'iz ovqat hazm qilish tizimining birinchi bosqichidir, ammo havoni tanaga kiritish uchun ikkinchi darajali manba sifatida ishlatilishi mumkin. Og'iz bo'shlig'i ovqat hazm qilish tizimida muhim rol o'ynaydi. (tibbiyot).*

Badiiy uslub: ingliz tilida *bow-shaped lips, rosebud-shaped lips*, o'zbek tilida esa *g'uncha lablar, dur tishlar*, kabi badiiy uslub so'zlari ishlatiladi.

Ingliz tilida: *She caught her little red lip with her teeth and felt her first thrill of power.* (Dreizer Theodore, 2009. 169)

O'zbek tilida: *Kerri pastki aqiq labini tishlab, ko'zguga qararkan, o'zining husn bobidagi qudratini sezganida yuragi dukillab ketdi.* (Drayzer Teodor, 2007, 176)

Bir narsa nomining ikkinchi narsaga shakl, rang va boshqa biror jihatdan o'xshashligi asosida ko'chirilishi *metafora* (grekcha *metaphora* – ko'chma nom, ko'chirish) deb atalib, bu to'g'ridan-to'g'ri taqqoslashga murojaat qilmasdan, ular o'rtasidagi o'xshashlik yoki bog'liqlikni yetkazish uchun boshqa so'z yoki ibora o'rniga qo'llaniladigan uslubdir. Metaforalar o'quvchilar yoki tinglovchilar ongida tasavvur hosil qilib, matnni yanada ifodali va obrazli qiladi. Ular adabiyotda, she'riyatda va kundalik nutqda ma'noni kuchaytirish va hissiy munosabatni uyg'otish uchun ishlatiladi.

At the mouth of the mall the two houses on either side were rented by family retainers with their own families and star boarders, single men who lived in the basement apartments. (Savdo markazining og'zida (kiraverish joyida) ikki tarafdagi ikkita uyni o'z oilalari bilan oila a'zolari va podvalda yashovchi yolg'iz erkaklar ijaraga olishgan) (Mario Puzo, 1972, 243)

– Quebec is at the *mouth of the St Lawrence River*. (Kvebek Sent-Lorens daryosining og'zida joylashgan.) –Three miles below town the ferryboat stopped at the *mouth of a woody hollow* and tied up. (*Shahardan uch chaqirim pastda parom o'rmonli chuqurning og'zida to'xtadi va bog'landi*) (ABBY Lingvo, 2000)

– *The mouth of the cave* was up the hillside – an opening shaped like a letter A. (*G'orning og'zi tog' yonbag'rida edi – A harfi shakliga o'xshash teshik edi*) (Mark Twain, 1976, 134) –*To'rt nemis minomyot og'zini berigi qirg'oqqa to'g'rilyotgani tepasidan chiqib qolgan Holmatjon bir dam esankirab qoldi.* (Madvaliyev A., 2008, 185) Ushbu gapdagi *og'iz* so'zi funksional-stilistik jihatdan ko'chma ma'noda qo'llanilgan. Gapda *minomyot og'zi* iborasi o'q otuvchi qurolning otiladigan joyini tasvirlash uchun ishlatilmoqda. Bu yerda “og'iz” so'zi qurolning ochiq qismi, ya'ni o'qlar chiqadigan joyni anglatuvchi texnik yoki harbiy termin sifatida xizmat qilmoqda. Stilistik jihatdan, harbiy uslubda foydalanilgan bo'lib, bunda *og'iz* so'zi obyektning vazifasini ifodalaydi, inson og'izining haqiqiy funksiyasiga o'xshatilib ishlatilgan. Quyida bunga o'xshash misollar keltiramiz: –O'raning *og'zi*. –G'orning *og'zi*. – Tandir *og'zidan* uchib chiqayotgan son-sanoqsiz uchqunlar qorong'ilik qa'riga kirib birin-ketin o'chadi. – Adham uning shamasini fahmlab ko'rpacha yonidagi hali *og'zi* ochilmagan shishani etagiga yashirib ildamlilik bilan tol orqasiga o'tdi. *Ko'zaning og'zi*. –Nazarida, xuddi shu darvoza og'zida velosiped ustasi borday bo'ldi. (Madvaliyev A, 2008, 184) *Ariqning dahani* (ariqning daryodan yoki kata anhordan shohobcha bo'lib chiqqan joyi. (So'zlashuvdan))

Leksemalar asli nomlar hisoblanib, ko'chma ma'nolar leksemaning mana shu ma'nosi negizida paydo bo'ladi va bir xil narsa yoki hodisani ifodalayotgan leksema boshqa xil narsa yoki hodisa ifodasi uchun qo'llana boshlaydi. – *There was a strong wind yesterday and the yachts in the bay carried bones in their mouths.* (Kecha kuchli shamol esib, yaxtalar ko'rfaz bo'ylab, suvni ko'pirtirib shiddat bilan suzib borar edilar) (Kunin A.V. 1984, 152) “*Carry bones in their mouths*” iborasi dengizchilik jargonidan olingan bo'lib, bu ibora ko'pincha kema yoki yaxtalarining tez va kuchli suzayotganini tasvirlash uchun ishlatilgan. Dengizchilar va baliqchilar bu iborani kema suvni kesib o'tayotganda old qismida hosil bo'ladigan oq ko'piklarni tasvirlash uchun qo'llaganlar. Ko'pik suvning “suyak”larga o'xshash ko'rinishiga ishora qiladi, go'yoki kemalar suvda suyaklar ko'tarib suzayotgandek tuyuladi. Bu ibora metaforik tarzda suyaklarni suvning qattiq oqimi yoki kemandagi tez harakatlanishi natijasida hosil bo'lgan ko'pik bilan bog'laydi. Shuningdek, kuchli shamolda yaxtalar yoki kemalar shiddatli suzayotgani, ular old qismida “suyak”larga o'xshash ko'piklar paydo bo'lishi bilan ifodalanadi. Bu ibora badiiy uslubga kirib, bu uslub tasviriy ifodalar, metaforalar va obrazli til orqali hissiyot va ta'sir o'tkazishga xizmat qiladi. Ushbu ibora konkret ma'nodan ko'ra ko'chma ma'noda ishlatilgani sababli, badiiy uslubning tasviriylik, emotsionallik va obrazlilik kabi xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Badiiy uslub odatda adabiyotda, she'riyatda yoki ijodiy matnlarda keng qo'llaniladi va o'quvchining tasavvurini kengaytirish, his-tuyg'ularni jonlantirish uchun ishlatiladi.

Yana misollar keltiramiz: *He's been acting as a mouthpiece for the government on questions of foreign policy.* (U tashqi siyosat masalalari bo'yicha hukumat uchun og'iz/ruyor vazifasini bajarmoqda). *The company has hired an attorney as a mouthpiece to answer its critics.* (Kompaniya o'z tanqidchilariga javob berish uchun advokatni og'iz/javob beruvchi etib yollagan) (Merriam-Webster's Online Dictionary)

Bir butun narsani uning biror qismi bilan atash yoki qism nomini butun uchun qo'llash keng tarqalgan. Bu hodisa *sinekdoxa* (yun. synekdoche – birga nazarda tutmoq, birga o'ylamoq) – metonimiyaning ko'rinishlaridan biri bo'lib, unda ma'no ko'chishi o'xshashlik, bog'liklikka asoslansada, bu yerda ko'chish obyektlari o'rtasidagi miqdoriy belgi yetakchilik qiladi; butun narsaning nomini uning qismi nomi bilan va, aksincha, qism nomini butun narsaning nomi bilan atash, ko'plik sondagi so'z o'rniga birlik sondagi so'zni qo'llash yoki aksincha ishlatish, ba'zan jins-tur munosabatidagi so'zlarning birbiri o'rnida qo'llanishidir. –By this time, the second child, Frederioo, had arrived and Vito Corleone had four *mouths to feed*. (Bu vaqtga kelib, ikkinchi bola Frederio yetib keldi va Vito Korleonening boqish uchun to'rtta og'zi bor edi)–*There were many more mouths to feed now*. (Endi u yerda boqish uchun og'izlar ko'p edi) –*And I could think of nothing else, except our being poor, and the number of mouths there were at home*. (Bizning kambag'alligimiz haqida va uyda kutayotgan qator og'izlardan boshqa hech narsani o'ylay olmasdim) (Puzo Mario, 1972, 157)

– U duv-duv yosh to'kar, qo'llarini osmonga ko'tarib nola qilardi: -Xudovando! Bu na ko'rgilik? Endi netaman? To'qqiz og'izni qanday boqaman?

– Bazzoz pochchaning bekorchisi og'izga tobi yo'q edi. (Madvaliyev A, 2008. 186) Ko'p og'iz bir bo'lsa, bir og'iz yengiladi. Yegan og'iz uyalar. Og'iz yesa, ko'z uyalar. Bol yegan og'izga baliq yarashmas. Maqol.

Onomatopeya – bu so'z yoki ibora bo'lib, u o'zi tasvirlayotgan tovushni taqlid qiladi. Masalan, “myau”, “gav”, “shish”, “taq” – bularning barchasi onomatopeyaga misol bo'ladi. Ular predmetlar, hodisalar yoki harakatlarning tovushlarini ifodalaydi va matnni yanada rang-barang va tasviriy qiladi. Quyida ingliz va o'zbek tillaridagi “mouth/og'iz” konsepti reprezentlarining onomatopeya hodisasini ifodalab kelishiga misollar keltiramiz: *Chomp* – qattiq tishlash yoki baland ovoz bilan ovqat chaynash tovushi; *Munch* – narsa xursandchilik bilan yoki qarsillab chaynash tovushi; *Slurp* – og'iz bilan suyuqlikni baland ovozda ichish tovushi; *Gulp* – suyuqlik yoki ovqatni tez va baland ovozda yutish tovushi; *Smack* – lablar bir-biriga tegib, ovoz chiqarishi, ko'pincha mazali ovqatni ta'riflash uchun ishlatiladi; *Burp* – oshqozondan chiqqan havoning og'iz orqali baland ovozda chiqishi (tirsak); *Hiccup* – diafragma va tomoqning majburiy spazmlari tufayli chiqadigan ovoz (hiqichoq); *Giggle* – yengil va mayin kulish ovozi; *Cough* – o'pkadan havoni to'satdan og'iz orqali chiqarib yuborish tovushi (yo'tal); *Sigh* – chuqur nafas chiqarish tovushi, ko'pincha yengillik yoki qayg'uni ifodalashda ishlatiladi;

O'zbek tilida: *Chap-chap* – og'izni ochish-yopish yoki ovqatni chaynash jarayonidagi tovush; *Qult-qult* – suyuqlikni yutish jarayonidagi tovush; *Qars* – narsa qattiq chaynalganda yoki katta tishlash tovushi; *Puf* – og'izdan nafasni kuch bilan chiqarib yuborish ovozi; *Hoh-hoh* – kulish jarayonidagi ovoz.

XULOSA

Berilgan matnda “mouth/og'iz” semantikasining funksional-stilistik jihatlari turli uslublarda qanday ishlatilishi ko'rsatilgan. Tahlil qilingan uslublar – ilmiy, badiiy, rasmiy-huquqiy, harbiy va onomatopeya – har birining o'ziga xos leksik va grammatik xususiyatlari mavjud. Masalan, ilmiy va tibbiy uslubda “og'iz bo'shlig'” (oral/buccal cavity) kabi aniq va murakkab terminlar ishlatiladi, badiiy uslubda esa tasviriy va metaforik ifodalar, masalan, “g'uncha lablar” yoki “og'iz” so'zining ko'chma ma'nosi bilan ishlov beriladi. Rasmiy-huquqiy uslubda esa, odatda, me'yoriy va standart iboralar, “og'iz” so'zining esa ko'chma ma'noda qo'llanilishi ko'proq uchraydi, masalan, “og'iz”ni

qurolning otish joyi sifatida ishlatish. Shuningdek, leksikal birikmalar, sinonimlar, antonimlar, va omonimlar orqali bir ma'noli so'zlar kontekstga qarab turlicha talqin qilinishi mumkin.

Badiiy uslubda esa onomatopeyalar, ya'ni tovushni taqlid qiluvchi so'zlar (masalan, "chomp", "slurp", "qars") matnni yanada tasviriy va ifodali qiladi, bu esa o'quvchilarning tasavvurini boyitadi va his-tuyg'ularni kuchaytiradi. Ushbu jarayonlar, umumiy tarzda, tilning funksional va stilistik imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi, har bir uslub o'zining maxsus maqsadiga erishishga yordam beradi va muloqotning samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. ABBYY Lingvo Electronic Dictionary. (2000). *Windows-based online dictionary and translation tool*. Boston Language Institute.
2. Кунин А.В. «Большой англо-русский фразеологический словарь» 4-е издание, исправленное и дополненное. Москва. Русский язык 1984, 96, 152, 277, 307, 517, 518.
3. Madvaliev, A. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi A. Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti. 2008. 185 b.
4. Merriam-Webster's Online Dictionary (MWOD). [Electronic Resource]. – Mode of access: <http://www.merriam-webster.com>.
5. Dreiser, Theodore. *Sister Carrie*. New York: Signet Classics, 2009.
6. Puzo M, *The Godfather, March 24, 1972* (United States), p. 243
7. Teodor Drayzer. Baxtiqaro Kerri. Roman. Ruschadan E.Nosirov tarjimasi. «Sharq» Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririya. Toshkent – 2007
8. Twain, Mark. *The Adventures of Tom Sawyer*. American Publishing Company, 1876.